

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**TA'LIM DARAJASI YUQORI BO'L MAGAN MAKtablarga malakali  
O'qituvchi-pedagoglarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2021-yil 3-fevraldag'i PF-6155-son **Farmoni** hamda "Olis hududlardagi budget tashkilotlariga malakali mutaxassislarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 11-yanvardagi PQ-4940-son **qarori** ijrosini ta'minlash, shuningdek, ta'lif darajasi yuqori bo'l magan maktablarda ta'lif berishni yaxshilash uchun boshqa hududlardan tajribali mutaxassislarni jalb etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Olis hududlardagi budget tashkilotlariga malakali mutaxassislarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 11-yanvardagi PQ-4940-son **qarorida**:

a) 2021-yil 1-martdan boshlab ta'lif darajasi yuqori bo'l magan maktablarda dars berish uchun boshqa hududlardan jalb qilingan oliy va birinchi toifaga ega o'qituvchi-pedagoglarning bazaviy tarif stavkalariga maxsus ustamalar joriy qilinganligi, bunda:

bir ma'muriy-hududiy birliklar doirasida boshqa tuman va shaharlardan kelib faoliyat yuritayotgan o'qituvchi-pedagoglarning bazaviy tarif stavkalariga 50 foiz;

boshqa ma'muriy-hududiy birlikdan kelib faoliyat yuritayotgan o'qituvchi-pedagoglarning bazaviy tarif stavkalariga 100 foiz maxsus ustamalar to'lanishi;

b) ta'lif darajasi yuqori bo'l magan maktablarda dars berish uchun boshqa hududda kamida bir yil ishlagan oliy va birinchi toifaga ega o'qituvchi-pedagoglar jalb qilinishi;

v) ta'lif darajasi yuqori bo'l magan maktablar ro'yxati Xalq ta'limi vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan aniqlanishi;

g) boshqa hududlardan jalb qilingan oliy va birinchi toifaga ega o'qituvchi-pedagoglarning bazaviy tarif stavkalariga maxsus ustamalar ular borgan matab ta'lif darajasi yuqori bo'l magan maktablar ro'yxatidan chiqarilgan yildan keyingi yil uchun ham to'lanishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Belgilansinki:

a) umumta'lif fanlaridan biri bo'yicha xalqaro tan olingan sertifikatga yoki Vazirlar Mahkamasining "Umumta'lif fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to'g'risida" 2020-yil 12-oktabrdagi 646-son **qaroriga** muvofiq umumta'lif fanlarini bilish darajasi to'g'risidagi sertifikatga ega bo'lgan:

pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lif muassasa (fakultet)larining 2021-yil va undan keyingi yillardagi bitiruvchilari bir ma'muriy-hududiy birlik doirasida boshqa tuman va shaharlardan kelib, ta'lif darajasi yuqori bo'l magan maktablarda mehnat faoliyatini amalga oshirganda, ularning bazaviy tarif stavkalariga 50 foiz va boshqa ma'muriy-hududiy birlikdan kelib mehnat faoliyatini amalga oshirganda, ularning bazaviy tarif stavkalariga 100 foiz maxsus ustamalar to'lanadi;

oliy ma'lumotli pedagog xodimlar va pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lif muassasa (fakultet)larining bitiruvchilari to'g'ridan to'g'ri ikkinchi malaka toifasiga ega bo'ladi;

b) Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 471-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lif muassasalarida boshqa hududlardan kelib faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarga maxsus ustama belgilanadigan hududlar ro'yxatidagi hududlarda joylashgan va ta'lif darajasi yuqori bo'l magan maktablarga boshqa hududlardan jalb etiladigan o'qituvchi-pedagoglarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Olis hududlardagi budget tashkilotlariga malakali mutaxassislarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 11-yanvardagi PQ-4940-son **qarori** hamda Vazirlar Mahkamasining "Olis hududlarda joylashgan umumiy o'rta ta'lif muassasalarida faoliyat

yuritayotgan pedagog xodimlarning mehnatini yanada rag‘batlantirish to‘g‘risida” 2019-yil 7-iyundagi 471-son **qarorida** belgilangan qo‘srimcha ustamalar va kompensatsiyalar to‘lanadi.

3. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Ta’lim darajasi yuqori bo‘limgan maktablarda ta’lim berish uchun boshqa hududlardan o‘qituvchi-pedagoglarni jalb etish tartibi to‘g‘risidagi nizom **1- ilovaga** muvofiq tasdiqlansin:

Xalq ta’limi vazirligi tomonidan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan birgalikda har yili 1-martga qadar ta’lim darajasi yuqori bo‘limgan maktablarni aniqlash va ularning ro‘yxatini shakllantirish tartibi;

ta’lim darajasi yuqori bo‘limgan maktablarda dars berishi uchun boshqa hududlardan o‘qituvchi-pedagoglarni jalb etish sxemasi;

ta’lim darajasi yuqori bo‘limgan maktablarga boshqa hududlardan jalb etiladigan o‘qituvchi-pedagoglarga qo‘yladigan talablar;

boshqa hududlardan jalb qilingan o‘qituvchi-pedagoglarni ishga qabul qilish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va mehnatiga qo‘srimcha haq to‘lash tartibi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining **2- ilovaga** muvofiq ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o‘zлari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.A. Musayev va O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vaziri Sh.X. Shermatov zimmasiga yuklansin.

### **O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2021-yil 15-oktabr,  
646-son

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktabrdagi 646-son **qaroriga**  
**1-ILOVA**

## **Ta’lim darajasi yuqori bo‘limgan maktablarda ta’lim berish uchun boshqa hududlardan o‘qituvchi-pedagoglarni jalb etish tartibi to‘g‘risida**

### **NIZOM**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom ta’lim darajasi yuqori bo‘limgan maktablarda ta’lim berish uchun boshqa hududlardan o‘qituvchi-pedagoglarni jalb etish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**ta’lim darajasi yuqori bo‘limgan maktablar** — O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Vazirlik) tomonidan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (keyingi o‘rinlarda — Inspeksiya) bilan birgalikda shakllantiriladigan ro‘yxatga kiritilgan umumta’lim maktablari;

**boshqa hududlardan jalb etiladigan o‘qituvchi-pedagoglar** (keyingi o‘rinlarda — o‘qituvchi-pedagoglar) — ta’lim darajasi yuqori bo‘limgan maktablarga mehnat shartnomasi asosida bir ma’muriy-hududiy birlik doirasidagi boshqa tuman (shahar)dan yoki boshqa ma’muriy-hududiy birlikdan (boshqa viloyatlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahri) faoliyat yuritishlari uchun jalb etilgan oliy va birinchi toifali pedagoglar;

#### ***Oldingi tahrirga qarang.***

**elektron platforma** — ta’lim darajasi yuqori bo‘limgan maktablar to‘g‘risida ma’lumotlar hamda ularga boshqa hududlardan jalb etilgan o‘qituvchi-pedagoglar ro‘yxati aks ettirilgan internet jahon axborot tarmog‘i orqali foydalanish imkoniyati yaratilgan, Vazirlik tomonidan ishlab chiqiladigan elektron tizim.

*(2-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgusdag‘i 425-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.08.2022-y., 09/22/425/0712-son)*

3. Ushbu Nizom talablari Vazirlik tizimidagi umumiyl o‘rta ta’lim muassasalariga (keyingi o‘rinlarda — maktablar) nisbatan tatbiq etiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(4-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgusdag‘i 425-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.08.2022-y., 09/22/425/0712-son)*

5. Ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablarda ta’lim berish uchun boshqa hududlardan o‘qituvchi-pedagoglarni jalg etish mazkur Nizomning ilovasida belgilangan sxema asosida amalga oshiriladi.

## **2-bob. Ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini shakllantirish va e’lon qilish**

6. Ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini shakllantirish mezonlari (keyingi o‘rinlarda — baholash mezonlari) Vazirlik va Inspeksiya tomonidan ishlab chiqiladi hamda tasdiqlanadi.

Bunda:

maktab bitiruvchilarining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish natijalari — O‘zbekiston Respublikasidagi oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga (barcha ta’lim shakllariga) talabalarni o‘qishga qabul qilish bo‘yicha kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) natijalari;

maktabning reytingi — Vazirlar Mahkamasining “Umumiyl o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari reytingini aniqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 3-iyundagi 345-son qarorida belgilangan tartib bo‘yicha aniqlangan umumiyl o‘rta ta’lim muassasalari reytingi natijalari;

“Zamonaviy maktablar”ga qo‘yilgan talablar asosida baholash natijalari inobatga olinadi.

Ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini shakllantirish mezonlari har bir o‘quv yili uchun takomillashtirilgan holda yangidan ishlab chiqiladi.

7. Yangi tashkil etilayotgan (Toshkent shahri va viloyat markazlaridan tashqari) maktablar ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatiga kiritiladi.

8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda — hududiy boshqarmalar) Inspeksianing hududiy bo‘linmalari bilan birgalikda har yili 1-fevralga qadar tasdiqlangan mezonlar asosida ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatiga kiritiladigan maktablar to‘g‘risida Vazirlikka taklif kiritadi.

9. Vazirlik har yili 1-martga qadar Inspeksiya bilan birgalikda ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini shakllantiradi hamda belgilangan tartibda tasdiqlaydi.

Ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablarning ro‘yxati tasdiqlangan kundan boshlab 10 kun ichida Vazirlikning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e’lon qilinadi.

## **3-bob. Elektron platformada ma’lumotlarni shakllantirish**

10. Elektron platformani uzlusiz ishlatish, moliyalashtirish, texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash va ma’lumotlarni yangilab borishni muvofiqlashtirish Vazirlik tomonidan amalga oshiriladi.

11. Tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari har yili 15-mayga qadar elektron platformaga ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlarni kiritadi:

maktab joylashgan hudud (tuman/shahar), uning manzili, telefon raqami;

maktabning quvvati, ta’lim berish tili, o‘quvchilar va sinflar soni;

pedagoglar soni, sifat tarkibi va mavjud fanlar bo‘yicha ajratiladigan vakant dars soatlari.

Tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari ma’lumotlarning to‘g‘riligi va haqqoniyligiga javobgar hisoblanadi.

Tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari tomonidan ma’lumotlarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri kiritilishi hududiy boshqarmalar tomonidan nazorat qilinadi.

#### **4-bob. Boshqa hududlardan o‘qituvchi-pedagoglarni jalg etish**

12. O‘qituvchi-pedagoglar:

tegishli fan yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotga ega bo‘lishi;

dars berayotgan fani bo‘yicha birinchi yoki oliy malaka toifasiga ega bo‘lishi;

boshqa hududda kamida bir yil pedagogik faoliyat yuritgan bo‘lishi;

amalda faoliyat yuritayotgan maktab ta’lim darajasi yuqori bo‘limgan maktablar ro‘yxatida mavjud bo‘lmasligi talab etiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

13. Boshqa hududlardagi ta’lim darajasi yuqori bo‘limgan maktablarda dars berish istagini bildirgan o‘qituvchi-pedagoglar elektron platformaga kiritilgan ta’lim darajasi yuqori bo‘limgan maktablarning birini tanlab, ko‘rsatilgan vakant soatlar bo‘yicha 15-maydan 25-iyulga qadar umumta’lim maktabi direktoriga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qiladi.

(13-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdaggi 425-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.08.2022-y., 09/22/425/0712-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

14. O‘qituvchi-pedagoglar ta’lim darajasi yuqori bo‘limgan maktab direktoriga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

mutaxassisligi, dars beradigan fanini ko‘rsatgan holda direktor nomiga ariza;

doimiy yashash manzili (hudud, tuman/shahar nomi), telefon raqami ko‘rsatilgan ma’lumotnomasi — obyektivka;

oliy yoki birinchi malaka toifasiga ega ekanligini tasdiqlovchi sertifikat nusxasi.

(14-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdaggi 425-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.08.2022-y., 09/22/425/0712-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

(15-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdaggi 425-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.08.2022-y., 09/22/425/0712-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

16. Ta’lim darajasi yuqori bo‘limgan maktablarda dars berish istagini bildirgan o‘qituvchi-pedagoglarni saralash bo‘yicha Ishchi guruh (keyingi o‘rnlarda — Ishchi guruh) tuziladi.

Ishchi guruh tarkibiga maktab direktori, direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rnbosari, kadrlar bo‘yicha menejer (inspektor), psixolog, maktab kasaba uyushmasi vakili kiritiladi.

(16-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdaggi 425-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.08.2022-y., 09/22/425/0712-son)

*Oldingi tahrirga qarang.*

17. Ishchi guruh murojaat etgan o‘qituvchi-pedagoglar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni o‘rganib chiqadi.

Belgilangan talablarga mos kelgan hamda vakant soatlar bo‘yicha bir o‘ringa ikki va undan ortiq nomzodlar bo‘lgan taqdirda, ular kasbiy bilim va ko‘nikmalar, pedagogik mahorat hamda psixologik qobiliyat yo‘nalishida Ishchi guruh tomonidan suhbatdan o‘tkaziladi.

Saralash onlayn tarzda ham amalga oshirilishi mumkin.

Ta’lim darajasi yuqori bo‘limgan maktab har yili 5-avgustga qadar Ishchi guruh tomonidan o‘tkazilgan o‘rganish va suhbat natijalariga ko‘ra saralangan o‘qituvchi-pedagoglar haqidagi ma’lumotlarni elektron platformaga kiritadi.

(17-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdaggi 425-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.08.2022-y., 09/22/425/0712-son)

18. Ta’lim darajasi yuqori bo‘limgan maktabda dars berish uchun murojaat qilgan va saralashdan muvaffaqiyatli o‘tgan o‘qituvchi-pedagoglar ro‘yxati har yili 10-avgustga qadar Vazirlikning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

#### **5-bob. Boshqa hududlardan jalg etilgan pedagoglarni ishga qabul qilish va faoliyatini muvofiqlashtirish**

19. Saralashdan muvaffaqiyatli o‘tgan o‘qituvchi-pedagoglar ishga qabul qilish bo‘yicha har yili 25-avgustga qadar maktab direktoriga yozma ariza bilan murojaat qiladi.

Maktab direktori saralashdan muvaffaqiyatli o‘tgan o‘qituvchi-pedagoglarni qonunchilikda belgilangan tartibda vakant lavozimga yangi o‘quv yilining birinchi kunidan boshlab ishga qabul qiladi.

25-avgustga qadar yozma ariza bilan murojaat qilmagan o‘qituvchi-pedagoglar bilan mehnat shartnomasi rasmiylashtirilmaydi, vakant joyga maktab direktori tomonidan belgilangan tartibda boshqa xodim ishga olinadi.

20. Boshqa hududdan kelgan o‘qituvchi-pedagoglarga tarifikatsiya ro‘yxatini shakllantirish mezonlaridan kelib chiqqan holda, kamida 1 stavka miqdorida dars soati va o‘quv yuklamalari ajratiladi. O‘quv rejasida umumta’lim fani bo‘yicha ajratilgan soatlar 1 stavkadan kam bo‘lgan taqdirda, mazkur fanga ajratilgan jami o‘quv soatlari va o‘quv yuklamalari beriladi.

21. O‘qituvchi-pedagoglarning pedagogik faoliyati muntazam ravishda tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

22. O‘qituvchi-pedagoglar faoliyat yuritayotgan maktab ikki o‘quv yili davomida ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatidan chiqarilmasa, o‘qituvchi-pedagoglarga belgilangan boshqa hududlardan jalb etilganligi uchun to‘lanadigan maxsus ustamalarini to‘lash to‘xtatiladi.

## **6-bob. Boshqa hududlardan jalb etilgan o‘qituvchi-pedagoglarga qo‘srimcha haq to‘lash**

23. Ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablarda dars berish uchun boshqa hududlardan jalb qilingan oliy va birinchi toifaga ega o‘qituvchi-pedagoglarning bazaviy tarif stavkalariga maxsus ustamalar belgilanadi.

Bunda:

bir ma’muriy-hududiy birlik doirasida boshqa tuman va shaharlardan kelib faoliyat yuritayotgan o‘qituvchi-pedagoglarning bazaviy tarif stavkalariga 50 foiz miqdorida;

boshqa ma’muriy-hududiy birlikdan — boshqa viloyatlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahridan kelib faoliyat yuritayotgan o‘qituvchi-pedagoglarning bazaviy tarif stavkalariga 100 foiz miqdorida maxsus ustamalar to‘lanadi.

24. Boshqa hududlardan jalb qilingan oliy va birinchi toifaga ega o‘qituvchi-pedagoglarning bazaviy tarif stavkalariga maxsus ustamalar ular borgan maktab ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatidan chiqarilgan yildan keyingi o‘quv yili uchun ham to‘lanadi.

25. Ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablarga boshqa hududlardan jalb etilgan o‘qituvchi-pedagoglarning amalda ishlagan maktabning Ishchi guruhi tomonidan o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini rag‘batlantirishning direktor jamg‘armasidan belgilangan ustama miqdori (foizi) bir o‘quv yili davomida saqlanadi va keyingi o‘quv yilida ushbu maktabning Ishchi guruhi tomonidan Vazirlar Mahkamasining “Umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2019-yil 30-sentabrdagi 823-son **qarorida** belgilangan tartibda qayta ko‘rib chiqiladi.

26. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari boshqa hududdan ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablarga jalb etilgan o‘qituvchi-pedagoglarga munosib sharoitlar yaratish uchun ularni borgan hududda uy-joyi bo‘lmagan taqdirda, tegishli tuman (shahar) hokimliklari tomonidan faoliyat olib borgan davriga, biroq 2 yildan ortiq bo‘lmagan muddat davomida xizmat uy-joylari yoki tuman (shahar)lar mahalliy budget mablag‘lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida har oylik pul kompensatsiyasi berilishini ta’minlaydi.

## **7-bob. Yakunlovchi qoidalar**

27. Vazirlik ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablarga jalb etilgan o‘qituvchi-pedagoglarning faoliyatini ommaviy axborot vositalarida hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng jamoatchilikka tanishtirib boradi.

28. Ushbu Nizom talablarini buzishda aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjaligiga muvofiq javobgar bo‘ladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ta’lim darajasi yuqori bo‘lماغان мактабларда та’лим берishi учун бoshqa hududlardan o‘qituvchi-pedagoglarni jaib etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga  
ILOVA

**Ta’lim darajasi yuqori bo‘lماغان мактабларда та’лим берishi учун бoshqa hududlardan o‘qituvchi-pedagoglarni jaib etish**

**SXEMASI**

<b>Bosqichlar</b>	<b>Subyektlar</b>	<b>Tadbirlar</b>	<b>Bajarish muddatları</b>
<b>1-bosqich</b>	Hududiy xalq ta’limi boshqarmalari, Inspeksiyaning hududiy bo‘linmalari	Tasdiqlangan mezonlar asosida ta’lim darajasi yuqori bo‘lماغان мактаблар ro‘yxatiga kiritiladigan мактаблар yuzasidan Xalq ta’limi vazirligiga taklif kiritadi.	Har yili 1-fevralga qadar
<b>2-bosqich</b>	Xalq ta’limi vazirligi, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi	1. Ta’lim darajasi yuqori bo‘lماغان мактаблар ro‘yxatini shakllantiradi va tasdiqlaydi. 2. Ta’lim darajasi yuqori bo‘lماغان мактаблар ro‘yxatini Vazirlikning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e’lon qiladi.	Har yili 1-martga qadar Ro‘yxat tasdiqlangandan so‘ng 10 kun ichida
<b>3-bosqich</b>	Tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limi	Elektron platformaga ta’lim darajasi yuqori bo‘lماغان мактаблар to‘g‘risida, shu jumladan, ulardagi ajratiladigan vakant dars soatlari haqidagi ma’lumotlarni kiritadi.	Har yili 15-mayga qadar
<b>4-bosqich</b>	O‘qituvchi-pedagoglar	O‘qituvchi-pedagoglar elektron platformaga kiritilgan ta’lim darajasi yuqori bo‘lماغان мактаблarning birini tanlab, ko‘rsatilgan manzilning axborot ma’lumotlari asosida mактаб direktoriga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat etadi.	Har yili 15-maydan 25-iyulga qadar
<b>5-bosqich</b>	Umumta’lim maktabi	1. Ta’lim darajasi yuqori bo‘lماغان мактаблarda o‘qituvchi-pedagoglarni saralash bo‘yicha ishchi guruh tuziladi. 2. Belgilangan talablarga mos kelgan hamda vakant soatlар bo‘yicha bir o‘ringa ikki va undan ortiq nomzo?lar bilan kasbiy bilim va ko‘nikmalar, pedagogik mahorat hamda psixologik qobiliyat yo‘nalishida suhbat o‘tkaziladi. 3. Saralashdan muvaffaqiyatlι o’tgan o‘qituvchi-pedagoglar	Har yili 1-avgustga qadar Har yili 5-avgustga qadar

		to‘g‘risida ma’lumotlarni elektron platformaga kiritadi.	
<b>6-bosqich</b>	Xalq ta’limi vazirligi	Saralashdan o‘tgan o‘qituvchi-pedagoglar ro‘yxatini Xalq ta’limi vazirligining rasmiy veb-saytida e’lon qiladi.	Har yili 10-avgustga qadar
<b>7-bosqich</b>	Umumta’lim maktabi direktori	Saralashdan o‘tgan o‘qituvchi-pedagoglar bilan yangi o‘quv yilining birinchi kunidan boshlab ishga qabul qilish bo‘yicha muddatli mehnat shartnomasi tuzadi va qonunchilikda belgilangan tartibda buyruqni rasmiylashtiradi.	Har yili yangi o‘quv yilining birinchi kuniga qadar

(ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagи 425-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.08.2022-y., 09/22/425/0712-son)

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktabrdagi 646-son qaroriga  
2-ILOVA

### **O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘sishchalar**

1. Vazirlar Mahkamasining “Umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2020-yil 12-oktabrdagi 646-son qarori quyidagi mazmundagi 2<sup>1</sup>-band bilan to‘dirilsin:

“2<sup>1</sup>. Milliy sertifikatning tegishli darajasiga ega matematika fani o‘qituvchilariga (Ixtisoslashtirilgan maktablarning matematika fani o‘qituvchilaridan tashqari) ular faoliyat olib borayotgan davlat ta’lim muassasasining joylashuviga qarab, bazaviy tarif stavkasiga nisbatan shahar hududida joylashgan maktablarda 25 foiz, qishloq hududida joylashgan maktablarda 50 foizgacha har oylik ustama haq to‘lanadi”.

2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 823-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiyl o‘rtta ta’lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini rag‘batlantirishning direktor jamg‘armasini tashkil etish va uning mablag‘laridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi **nizom** quyidagi mazmundagi 24<sup>1</sup>-band bilan to‘dirilsin:

“24<sup>1</sup>. Ta’lim darajasi yuqori bo‘limgan umumiyl o‘rtta ta’lim muassasalariga boshqa hududlardan jalb etilgan oliy va birinchi toifaga ega o‘qituvchi-pedagoglarning amalda ishlagan umumta’lim muassasasining direktor jamg‘armasidan belgilangan ustama haq (foiz)lari saqlanadi.

Mazkur ustamalar bir o‘quv yili davomida saqlanadi va keyingi o‘quv yilida ta’lim darajasi yuqori bo‘limgan umumiyl o‘rtta ta’lim muassasalarining Ishchi guruhi tomonidan qayta ko‘rib chiqiladi.”.

3. Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrdagi 275-son qarori bilan tasdiqlangan Xalq ta’limi xodimlari mehnatiga haq to‘lash to‘g‘risidagi nizomning **8-bandidagi** “4-kursida” so‘zları “4-kursida, pedagogika yo‘nalishlarida kunduzgi, kechki, sirtqi bo‘limlarining 3-kursida” so‘zları bilan almashtirilsin.

(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.10.2021-y., 09/21/646/0963-son; 03.08.2022-y., 09/22/425/0712-son)